

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD QONUNCHILIGI

Yo‘ldoshev Kozimjon Farxodjon o‘g‘li

Andijon davlat universiteti “Tarix” fakulteti 3-kurs talabasi,

Abstrak: O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini e‘lon qilgan vaqtdan boshlab, dunyodagi ko‘plab mamlakatlar bilan keng miqyosda diplomatik va iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘ydi, bu esa mamlakatimizning Xalqaro miqyosdagi o‘rnini oshirish hamda tashqi savdo aloqalari tufayli, iqtisodiyotini rivojlantirishida yordam berib kelmoqda. O‘zbekistonning muhim iqtisodiy hamkorlari qatoriga Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya hamda Turkiya singari davlatlar kiradi ammo O‘zbekistonni tashqi savdosi jadal o‘sib borayotganligi sababli, yangi hamkorliklarga ehtiyoj sezilmoqda. Bunda ayniqsa Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonni hammadan ham ko‘proq o‘ziga jalb qilmoqda. Vengriya davlati esa bu hamkorlikda muhim o‘rin egallashi mumkin.

Kalit so‘zlar: Tashqi savdo, investitsiya, temir yo‘l, tranzit, diplomatiya, texnologiya.

Аннотация: С момента провозглашения независимости Республика Узбекистан установила широкомасштабные дипломатические и экономические отношения со многими странами мира. Важными экономическими партнерами Узбекистана являются такие страны, как Китай, Россия, Южная Корея и Турция, но в связи с быстрым ростом внешней торговли Узбекистана ощущается необходимость в новых партнерских отношениях. В этом отношении Евросоюз привлекает Узбекистан больше, чем кто-либо другой. Венгрия может сыграть важную роль в этом сотрудничестве.

Ключевые слова: Внешняя торговля, инвестиции, железная дорога, транзит, дипломатия, технологии.

Abstract: Since the declaration of independence, the Republic of Uzbekistan has established large-scale diplomatic and economic relations with many countries of the world. Important economic partners of Uzbekistan include countries such as China, Russia, South Korea and Turkey, but due to the rapid growth of Uzbekistan's foreign trade, there is a need for new partnerships. In this regard, the European Union attracts Uzbekistan more than anyone else. Hungary can play an important role in this cooperation.

Key words: Foreign trade, investment, railway, transit, diplomacy, technology.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdosida zamonaviy texnologiyalarni olish va o‘rniga mahalliy korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish asosiy o‘rin egallamoqda. Shuning uchun ham, tashqi aloqalarda Xitoy, Janubiy Koreya,

Yevropa Ittifoqi (YI) mamlakatlari bilan savdo-sotiqni rivojlantirishga yuqori darajada e'tibor berilmoqda. Jumladan, bu o'rinda Vengriya davlatining ham alohida o'rni mavjud, chunki ushbu davlat orqali YI bilan quruqlik orqali savdo qilish mumkin, hamda ushbu mamlakat ham o'tgan asrning 90-yillarigacha rivojlanishning sotsialistik yo'lidan borganiga qaramay, bozor iqtisodiyotiga o'tgan davlatlardan biri hisoblanadi. Bu sohada ham tomonlar orasida tajriba almashinuvlari bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodlari

Ushbu maqola tarixiy tadqiqotlarning ilmiy holislik, mantiqiy izchillik, qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi usullari asosida yozildi.

Natijalar

1991-yil 26-dekabr birinchilardan bo'lib Vengriya O'zbekistonning mustaqilligini tan olgan. 1992-yil 3-mart kuni, ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1997-yilda esa Vengriya prezidenti O'zbekistonga tashrif buyurdi [1]. Shu o'rinda, e'tiborga molik jihat shundaki, O'zbekistonning bugungi kundagi eng yirik iqtisodiy hamkori Xitoy Xalq Respublikasi ham, O'zbekiston mustaqilligini Vengriyadan bir kun keyin, 1991-yil 27-dekabr kuni tan olgan edi [2].

2004-yil Vengriyaning Yevropa Ittifoqiga azo bo'lganligi sababli, O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi munosabatlar YI bilan konstruktiv tarzda olib borildi [3]. Ya'ni o'zaro munosabatlar ma'lum vaqt YI bilan birga olib boriladi.

Shavkat Mirziyoyev va Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning 2019 yil 15 oktabr kuni Boku shahrida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammiti doirasidagi samarali uchrashuvi tashkilot doirasidagi o'zaro muloqotga va munosabatlarda yangi davrni boshlab berdi. Joriy yildagi davlatimiz rahbarining Vengriyaga rasmiy tashrifi o'zaro aloqalarni zamonaviy sharoitlarga mos strategik sherikchilik bosqichga olib chiqishga yangi imkoniyatlar yaratdi. O'zbekiston va Vengriya o'rtasida qo'yilgan muhim qadamlardan bir 2016-yilda O'zbekistonda Vsengriya elchixonasining ochilishi bo'ldi. O'z navbatida 2023-yilda Vengriya poytaxti Budapeshtda O'zbekiston elchixonasi ochildi, unga qadar Vengriya elchixonasi funksiyasi Avstriya poytaxti Venadan turib amalga oshirilardi. 2022-yilda esa tomonlar o'rtasida strategik sheriklik to'g'risida bitim imzolanib, shu bilan birga 14 dan ortiq keng qamrovli shartnomalarga qo'l qo'yildi.

2022-yilga kelib Vengriya bilan tashqi savdo aylanmasi hajmi 92,7 mln dollarni tashkil etdi. 2023-yilning dastlabdi besh oyining o'zida esa 40 mln dollardan oshadi. O'zbekistonning Vengriyaga eksportining asosini to'qimachilik mahsulotlari, xizmatlar, oziq-ovqat mahsulotlari, plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar tashkil etadi. O'z navbatida, O'zbekiston Vengriyadan farmatsevtika, chorvachilik mahsulotlari, mexanik va elektr uskunalari va boshqa tovarlar import qiladi. Bu ham tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning ijobiy tomonga o'zgarib borayotganini ko'rsatadi [4].

Bundan tashqari Xitoy Xalq Respublikasi, Qirg‘iziston bilan O‘zbekiston o‘rtasida qurilishi rejalashtirilayotgan Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘lining ahamiyati ham katta chunki, bu yo‘l “Yangi Buyuk Ipak” yo‘lining bir qismi hisoblanadi. Bu temir yo‘l qurib bitkazilgandan so‘ng, uning davomi sifatida temir yo‘l liniyalarini Yevropagacha yetkazish ham rejalashtirilgan edi. Agar bu yo‘llar to‘liq ishga tushsa Vengriya va O‘zbekiston o‘rtasidagi tovar ayrboshlash hajmi ortishi bilan birgalikda, ikki davlat bir-biri uchun muhim tranzit yo‘liga aylanib qoladi. Chunki O‘zbekiston Xitoyga boradigan tovarni Yevropaliklar hususan Vengriya uchun tranzit qiladi hamda Vengriyaning o‘zi Sharq hususan O‘zbekiston tovarlarini temir yo‘l orqali tashish bilan birga muhim tranzitor ham bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kun.uz. URL: <https://kun.uz/uz/news/2022/11/08/ozbekiston-vengriya-turkiy-davlatlar-tashkiloti-doirasidagi-muloqot-va-hamkorlik>
2. Muminov Kh.M, Kodirjonov O.T Ugli. History of diplomatic and economic relations between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China (1991-2016) // International Journal of History and Political Sciences (IJHPS). – Manhattan, USA. Vol. 04, No. 2. February 11, 2024.
3. Xabar.uz. URL: <http://m.xabar.uz/uz/mualliflar/sardor/vengriya-ozbekistonga-nima>
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi.
5. URL: <https://parliament.gov.uz/articles/1630#!>
6. Kodirjonov O. Railway project between Uzbekistan and China // Journal of Modern Educational Achievements (JMEA). India. Vol. 7, No. 7. Jun 26, 2023.